

TASHKILOTLARDA IJTIMOYIY ADOLAT VA TENGLIK MUAMMOLARI

Mutalibxonov Azizxo'ja

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti sotsiologiya yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18076927>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tashkilotlarda ijtimoiy adolat va tenglik muammolari sotsiologik va boshqaruv yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Ijtimoiy adolat tushunchasining taqsimot, jarayon va munosabat adolati kabi asosiy tarkibiy qismlari yoritilib, ularning tashkilot faoliyatidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Distribyutiv adolat, kontribyutiv adolat, ijtimoiy adolat, tenglik, teng imkoniyatlar, tashkilot, boshqaruv, xodimlar motivatsiyasi, taqsimot adolati, jarayon adolati, ijtimoiy muhit.

Zamonaviy jamiyatda tashkilotlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi tuzilmalar, balki ijtimoiy munosabatlar shakllanadigan muhim makon sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tashkilotlarda ijtimoiy adolat va tenglik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy adolat xodimlar o'rtasida resurslar, imkoniyatlar va mas'uliyatlarning adolatli taqsimlanishini ifodalasa, tenglik barcha xodimlar uchun bir xil huquq va sharoitlarning mavjudligini anglatadi.

Har qanday jamiyat farovonligida ijtimoiy tenglik tamoyili juda muhim o'rin tutadi. Bu tamoyil aholining turli qatlamlariga berilgan iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar keskin farq qilmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Hatto o'ta kapitalistlashgan jamiyatlarda ham daromadlar aholining turli qatlamlari o'rtasida nisbatan teng taqsimlanishiga qaratilgan siyosat olib boriladi.

Tenglik prinsipi asosida odamlarning adolat haqidagi qarashlari yotadi. Falsafada adolatga ikki xil qarash bo'lib, biri hamma boylik va imkoniyatlar hammaga teng taqsimlanishi kerak deydi (bu taqsimiy yoki distribyutiv adolat deb ataladi), ikkinchisi boylik va imkoniyatlar har kimning qilgan mehnati va yutuqlariga qarab bo'linishi kerak deydi (bu hissaviy yoki kontribyutiv adolat deb ataladi). Bu ikki yondashuv juda keskin bo'lib, ularning biriga amal qilgan jamiyat tezda ichki muammolar yukidan aziyat cheka boshlaydi va tanazzulga uchraydi¹.

Distribyutiv adolat tarafdorlari hamma mutlaqo teng bo'lgan jamiyat va shunga monand iqtisodiy tuzum yaratishga intiladilar. Sovetlar qurgan davlat ana shu tamoyilga asoslangan bo'lib, mafkuraga ko'ra unda daromadlar ham, imkoniyatlar ham har kimga teng berilishi, jamiyatda boy va kambag'allar, savodli va savodsizlar bo'lmasligi kerak. Bu yondashuvning afzalligi juda ko'p: har kim qonun oldida barobarligi, har kim bepul ta'lim va tibbiy yordam olishi kabi qadriyatlar aynan shu falsafaga asoslangan. Ammo distribyutiv adolat jiddiy bir muammoni ham keltirib chiqaradi: umumiy manfaatlardan hamma bilan teng ulush olgan odam hech narsaga intilmay qo'yadi, o'z mehnati samaradorligini oshirmaydi. Bunday muhitda odam hech nima qilmasa ham, hamma qatori jamiyat ne'matlaridan bahramand bo'laveradi. Va aksincha – ko'p mehnat qilgan va jamiyatga ko'p foyda keltirgan odam ham undan kamroq harakat qilganlar qatori ulush oladi. Natijada jamiyatda yangilikka intilish, ilm-fan va texnologiyani rivojlantirish orqaga ketadi. Jamiyat o'sishdan to'xtaydi. Bu muammoni kontribyutiv adolat prinsipi hal qiladi: u har kimga uning mehnati va umumiy farovonlikka qo'shgan hissasiga qarab ulush berish kerakligini targ'ib qiladi.

¹ [Ijtimoiy tenglik: nazariya va amaliyot – iqtisod.uz](https://nazar.uz)

Bu yondashuv ham kuchli fazilatlariga ega: intiluvchan yoshlarga rag'bat berish, yaxshi mehnatni mukofotlash kabi qadriyatlar shu falsafaga asoslangan. Ammo bu yondashuvda ham bir yaqqol kamchilik bor: u jamiyatda sinflar paydo bo'lishiga, bu sinflar bir-biridan keskin uzoqlashishiga va dushmanlashishiga olib keladi. Bu yondashuvning asosiy quroli raqobat bo'lib, odamlarga hech bir qoidasiz ochiq raqobat qilishga qo'yib berilsa, ular me'yorni bilmaydilar. Bunday muhitda boyning bolasi hech bir iste'dodga ega bo'lmasa ham, bilim olish uchun barcha imkoniyat va sharoitga ega bo'ladi, kambag'al bolasi esa kuchli iste'dodi bo'lsa ham, bilim olish imkoniyatida keskin cheklangan bo'ladi. Natijada boy tabaqa avlodlar osha boyligicha – nochorlar nochorligicha qoladi. Jamiyat muvozanatda bo'lishi va farovon yashashi uchun, shu ikki tamoyil uyg'unlikda ishlashi lozim.

Bunda eng asosiy e'tiborni shunga qaratish kerakki, daromadlar taqsimlanishida kontribyutiv adolat tamoyiliga amal qilinsa, imkoniyatlar taqsimlanishida distribyutiv adolat tamoyiliga amal qilish kerak. Daromadlar taqsimlanishida har kim o'z mehnati va umumiy farovonlikka qo'shgan hissasiga qarab ulush olishi kerak. Shunda o'z iqtidorini o'stirgan, mehnatdan qochmagan, jamiyatga iqtisodiy naf keltirgan odam shu harakatlariga monand rag'bat oladi. A'lo o'qigan o'quvchi va talabani odil rag'batlantirish, yaxshi ishlagan xodimni mukofotlash kerak. Bunday muhitda olimlarda yangiliklar yaratishga, ijodkorlarda yaxshiroq ijod qilishga, tadbirkorda mahsulot va xizmat sifatini yaxshilashga intilish kuchli bo'ladi.

Iqtisodning barcha sohasi jadal rivojlanadi. Shu bilan birga, har kimga teng imkoniyatlar berilishi kerak. Yashash, sog'lom bo'lish, bilim olish, o'z iqtidorini rivojlantirish o'zi sevgan kasbda mehnat qilish uchun shart-sharoit va imkoniyatlar distribyutiv adolat prinsipiga ko'ra taqsimlanishi lozim. Qonun har kimning shaxsiy va tijorat huquqlarini bir xil himoya qilishi lozim, har qanday yangi biznes egasi ham o'z ishini qonuniy yuritish va o'sish uchun boshqalar bilan teng imkoniyatga ega bo'lishi darkor. Maktablar hamma o'quvchiga bir xil ta'lim berishi, shifoxona hamma bemorga bir xil qarashi kerak. Shunda astoydil bilim olib, mehnat qilishga tayyor quyi qatlam vakillari ham o'z hayotlarini yaxshilay oladilar.

Tashkilotlarda ijtimoiy adolat masalasini chuqurroq anglash uchun distribyutiv va kontribyutiv adolat tamoyillarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish muhimdir. Ijtimoiy adolatning ushbu ikki yondashuvi jamiyat va tashkilotlar rivojida muhim, ammo bir-birini to'ldiruvchi jihatlariga ega. Shu nuqtayi nazardan, tashkilotlar va jamiyat barqaror rivojlanishi uchun distribyutiv va kontribyutiv adolat tamoyillarini qarama-qarshi emas, balki o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llash zarur. Ilmiy yondashuvlarga ko'ra, daromad va rag'batlantirish tizimida kontribyutiv adolatga amal qilish, ya'ni mehnat natijasiga qarab mukofotlash samarali hisoblanadi. Biroq imkoniyatlar taqsimotida — ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy himoya sohalarida — distribyutiv adolat tamoyilini ustuvor qo'yish jamiyat va tashkilotlarda ijtimoiy muvozanatni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda Jamiyat va tashkilotlarda adolat va tenglik masalasi odamlarning kundalik hayotiga bevosita ta'sir qiladigan muhim muammo hisoblanadi. Inson o'z mehnati baholanayotganini, unga nisbatan munosabat adolatli ekanini his qilsa, u ko'proq harakat qiladi, mas'uliyatni chuqurroq anglaydi va o'zini jamiyatning muhim bir qismi sifatida ko'ra boshlaydi.

Aksincha, adolatsizlik va tengsizlik hissi kuchaygan muhitda odamlar befarq bo'lib qoladi, tashabbus kamayadi va umumiy taraqqiyot sekinlashadi. Shuning uchun jamiyat va tashkilotlar uchun eng to'g'ri yo'l — bu tenglik va mehnatga yarasha baholashni birgalikda olib borishdir.

Imkoniyatlar boshlanishida hamma uchun bir xil bo'lishi, natijalar esa har kimning qilgan ishiga qarab baholanishi kerak. Ana shunda ham odamlar o'z ustida ishlaydi, ham jamiyatda adolat hissi saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ijtimoiy tenglik: nazariya va amaliyot – iqtisod.uz
2. Weber, M. *Economy and Society*. University of California Press, 1978.
3. Social justice - Wikipedia
4. Gulnoz J. Sotsiologiya tarixi.–T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.